IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2, ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

Fenomenologik psixologiya nazariyasining paydo bo'lish omillari xususida.

Usmonova Surayyo Muhiddinovna

Buxoro davlat universiteti Ilmiy tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamentining talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish sektori yetakchi mutaxassisi, I-bosqich magistrant.

Annotatsiya: Ushbu maqolada fenomenologik psixologiya nazariyasining paydo bo'lishi , taraqqiyot tamoyillari va o'zbek adabiyotidagi inikosi masalasi ilmiy-nazariy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Hisserl, fenomenologik falsafa, muallif, hissiyot, istak, iroda, inson psixologiyasi, boridan ajralib turish, biografik metod, muallif ongi, ong osti, munosabat, fikr, xoxish va hokazo.

Har bir ijodkor-san'atkor o'zicha bir olam. Ularning biri ikkinchisini takrorlamaydi, biri boshqasidan farqlanadi. Adiblarning asarlarini tahlil qilish katta sathdagi masala hisoblanadi. Nemis adabiyotshunosi Hisserl "Mantiqiy tekshirishlar" kitobida fenomenologik nazariyani tushuntiradi.Biz ilmiy tahlilga kirishishdan avval, "fenomen", "fenomenalizm", "fenomenologiya" atamalariga qisqacha ta'rif keltirishni lozim topdik. Fenomen-yunoncha- phainomen-so'zidan olingan bo'lib[1], sodir bo'luvchi, g'ayrioddiy, kamdan-kam bo'ladigan hodisa, fakt. His-tuyg'u tajribasi bilan payqalanadigan hodisani anglatuvchi falsafiy tushuncha. Bu ma'noda o'z mohiyati jihatdan intelektual mushohada predmeti sifatida namoyon bo'luvchi noumenning qaramaqarshisidir. "Fenomen " atamasini mashhur yunon faylasufi Aristotel "ko'rinuvchi", "tuyiluvchi" ma'nosida ishlatgan.Leybnits esa bu so'zni tajribadan ma'lum bo'lgan dalillarga nisbatan qo'llagan. Immanuyil Kant esa fenomen tushunchasi yordamida mohiyatni hodisadan keskin ajratishga uringan va hodisani bilish mumkin, mohiyatni esa bilish mumkin emas deb hisoblagan. Fenomenolizm-falsafiy ta'limot, bevosita bilish ob'ekti sezgilarning o'zidangina iborat degan nuqtai-nazarga tayanadi. Bu ta'limot bakillarini falsafa va psixologiya tarixida ashaddiy va mo'tadil fenomenolizm tarafdorlariga bo'lib. ajratib o'rganishdi. Ashaddiy fenomenolizm konsepsiyasi dunyo g'oyalar majmuasi, sezgilar kompleksi deb hisoblovchi subektiv idializm oqimiga yoki dunyoni bilish mumkinligini inkor etuvchi agnostisizimga olib boradi. Bunday konsepsiya tarafdorlari fikricha, sezgilar ortida nimalar yashiringanini bilishimiz mumkin emas. Mo'tadil fenomenolizm vakillari orasida sezgilarda namoyon bo'luvchi obektlarning reyal mavjudligini tan oluvchi va bunday obektlarni moddiy obyektlar deb hisoblovchi noizchil materialistlarni ham, bu obyektlarni bilib olish mumkin bo'lmaydigan narsa o'zidadir deb hisoblovchi Kant tarafdorlarini ham uchratish mumkin. Fenomenolizm XIX-XX-asrlarda yashab o'tgan barcha pozitivistik ta'limotlarga ham xosdir. Fenomenologiya- fenomen va logiya yani falsafiy fan, falsafa tarixida turlicha hissiy bilishni tanqid qiladigan fan sifatida (I.G.Lamberg, I.Kant), falsafaning vujudga kelishi, ongning tarixiy tadqiq etish shakllarini o'rganadigan ta'limot sifatida (G.Gegelning "Ruh fenomenologiyasi"), psixik fenomenlarni bayon etuvchi psixologiyaning bir qismi sifatida (F.Brentano, A.Meynong) talqin etiladi.Falsafiy oqim uning prinsiplarini XX asr boshida E.Gusserl ta'riflab bergan.U bir tomondan fenomenologiya ratsional empirizm va pozitivizm bilan bog'liq ekanligini qayd etsa, 2-tomondan esa, naturalistik obyektivizm va skeptik relyativizmni tashkil qiladi. Fenomenologiyani yo'qotilgan va unitilgan qadriyatlarini topishga ko'mak beruvchi falsafiy arxeologiya deb biladi.

Fenomenologiya obyektni, yani ko'rinib turgan narsani emas, mohiyatni o'rganadigan ilmdir. U ong bilan bog'liq hodisa bo'lib, falsafa va psixologiya fanlari o'rtasidagi mustaqil fan. Fenomenologiya idrok etish, fikrlash, xotira, tasavvur, hissiyot, istak va irodadan tortib tanani

[1] O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Ziyouz. Com.

anglash, mujassam harakatlar va ijtimoiy faoliyat, shu bilan birga lingvistik tushunchalarni ham ifodalaydi. Fenomenologik psixologiyada badiiy asarlarga tayanib ularning original nazariyasini va badiiy asar bilan ishlashning o'ziga xos metodologiyasini yaratish mumkin. Ba'zan biografik ma'lumotlar badiiy asar talqinini butunlay kutilmagan yangi o'zanlarga solib yuborishi mumkin. Ijod mevasini muallifning ma'naviy-ruhiy tafakkur dunyosidan ayricha tasavvur etish qiyin. Idrok quvvati kuchsiz, xayolot olami mahdud, ma'naviy-axloqiy tabiati tuban va iste'dodsiz kishilar betakror badiiyat durdonalarini, o'lmas adabiy qahramonlarini yarata olmaydi. Zero, "har qanday badiiy asarda yozuvchi ruhi, holi, qalbi aks etadi".[2] Fenomenologiya istilohi Hisserlgacha bo'lgan olimlar asarlarida ham uchraydi. Ammo uni to'la nazariya sifatida Hisserl shakllantirdi.Bu termin keyinchalik, nemis adabiyotidan fransuz adabiyotshunosligiga ko'chdi. So'ngra ingliz va rus olimlari asarlariga ko'chdi.Fenomenologiya ong haqidagi ilmdir.Uning asosiy predmeti ongning qanday ishlashi, o'zida nimani aks ettirishi haqidagi fandir. Ong birliklarini fenomenlar hosil qiladi.Ular har bir insonda dunyoni anglatuvchi subyektiv shakllardadir.Inson real borliqdagi shakllarda emas, balki o'z ongidagi hodisalar bilan ishlaydi.Narsalarni o'rganish, va bilish, ularning mavjudligi faqatgina ongda idrok etiladi.Ushbu uslubiy munosabat bilan fenomenologik tadqiqotlar ongning idrok etish tajribasiga kirmaydigan, uning ishi bilan bog'liq bo'lmagan barcha narsani inkor etadi. Badiiy uslubiy prinsip ongning fenomenologik reduksiyasi deyiladi.[3] Asar yaratilishi ijodkorning tasavvuridan boshlanib, hayotning turfa ko'rinishlari, personajlar psixologiyasi, voqelik-barchasi ongda , ijodkor ongida aks etadi. Demak psixologik tahlil insoniyat badiiy taraqqiyotining qiyosan yuksak darajasida yuzaga keladi va faqat muayyan ijtimoiy- estetik sharoitdagina bo'y ko'rsatadi.Ushbu muammo shunisi bilan qimmatli va estetik ahamiyatliki, shaxsning ruhiy hamda bir vaqtning o'zida davr va jamiyat qarama-qarshiliklarini, komfiliktlarini aks ettiruvchi ichki ziddiyatlari aynan psixologizm orqali yaqqol ochiladi.Inson adabiyotda xarakter sifatida alohida fe'l- atvor va muomala, hissiyot va fikr egasi bo'lgan tip sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiy asarning qimmatini oshiradigan , kitobxonlar uchun qiziqarli qiladigan yozuvchining qahramonlar ruhiy psixologik holatlarini yuksak mahorat bilan tasvirlashiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan qaraganda, adibning iste'dodi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki inson tabiatidagi murakkab holat va kechinmalarni, ongdagi o'y va fikrlarni yuz ifodasi, qahramonlar harakatida ifodalab berish yuksak mahorat talab qiladi.

[2] Karimov B. "Abdulla Qodiriy fenomeni"Toshkent. "Info capital group".2019.b-66.

[3] Tilavova M."Badiiy tahlilda fenomenologik psixologiyaning ahamiyati".Til va adabiyot ta'limi.Toshkent, 2021-yil 3-son. B-15-16.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Ziyouz. Com.
2.Karimov B. "Abdulla Qodiriy fenomeni"Toshkent. "Info capital group".2019.b-66.
3.Tilavova M."Badiiy tahlilda fenomenologik psixologiyaning ahamiyati".Til va adabiyot ta'limi.Toshkent, 2021-yil 3-son. B-15-16.
4.Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG 'ICH SINFLARDA O 'ZBEK QISSALARI TAHLILINING INNOVATSION USULLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 350-352.
5.Ahmadovich H. H. et al. O 'RXUN-YENISEY BITIKLARIDA TALIM-TARBIYA TO 'G 'RISIDAGI FIKRLARNING YORITILISHI VA ULARNING TARBIYAVIY AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 349-350.
6.Ahmadovich H. H. et al. IJODIY TOPSHIRIQLAR O 'QUV MOTIVLARINI SHAKLLANTIRISHNING SAMARALI VOSITASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 293-294.
7.Ahmadovich H. H. et al. BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA O 'ZLASHTIRISH JARAYONINING PSIXO-DIDAKTIK ASOSLARI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 332-334.

8.Ahmadovich H. H. et al. O ‘QUVCHILARNING BILUV FAOLLIGINI OSHIRISHGA QARATILGAN DARSDAN TASHQARI ISHLAR VA ULARNI TASHKIL ETISH METODIKASI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 343-345.

9.Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O ‘QUVCHILAR O ‘ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 306-309.

10.Ahmadovich H. H., Aminovna A. S. BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QISH DARSLARIDA DIDAKTIK O ‘YIN VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 100-102.

11.Ahmadovich H. H., Amrulloyevna S. D. RUNN BITIKLARI AXLOQ VA VATANPARVARLIKNING YUKSAK NAMUNASI SIFATIDA //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 248-250.

12.Ahmadovich K. H., Bahriddinovna S. G. Development and practical application of acmeological technologies of student assessment diagnose //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – Т. 11. – №. 6. – С. 141-145.

13.Ahmadovich K. H., ZokirovnaZ A. G. THE PROBLEM OF HUMAN EDUCATION AND MORALITY IN FOLKLORE //Gospodarka i Innowacje. – 2022. – Т. 25. – С. 133-137.

14.Ahmadovich K. H., Nodirkulovna A. I. Theory of Fairy Tales in Primary Grades, The Nature of the Fairy Tale Genre //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 7. – С. 130-133.

15.BuxDUPI H. A. H. et al. AKMEOLOGIYA VA UNING O’QUVCHILAR O’ZLASHTIRISHINI TASHXISLASHDAGI O’RNI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 415-417.

16.Хаитов Х. Адабиётда кулгидан фойдаланиш анъанасининг асослари //Общество и инновации. – 2021. – Т. 2. – №. 3/S. – С. 49-52.

17.Ҳайитов Ҳ. А. ЛЎЛИ НОМИ БИЛАН БОҒЛИҚ ЛАТИФАЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ //Интернаука. – 2021. – №. 17-4. – С. 51-52.

18.Hayitov H. A. QUSHLARGA IBRAT-HAZRATI XIZR! //Интернаука. – 2020. – №. 12-3. – С. 72-73.

19Khoja o’g’li T., Ahmadovich K. H. Advanced Characteristics of the Tradition of Using Uzbek Folk Humor Art in Written Literature //American Journal of Social and Humanitarian Research. – 2022. – Т. 3. – №. 9. – С. 1-4.

20.Khaitov H., Amonova S. ЎЗБЕК ҲИКОЯ ВА ҚИССАЛАРИДА КУЛГИ МАДАНИЯТИНИНГ ИЛДИЗЛАРИ //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 140-144.

21.Ahtamovich H. H., Shixnazarovna J. A. O ‘QUVCHILAR O ‘ZLASHTIRISH DARAJALARINI TASHHISLASH //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 306-309.

22.Axmadovich X. X. et al. ENG QADIMGI MA’RIFIY YODGORLIKLARNI O ‘RGANISHNING AHAMIYATI //PEDAGOGS jurnali. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 281-285.

23.Ҳайитов Х. А. ҒАФУР ҒУЛОМНИНГ ХАЛҚ ЛАТИФАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАҲОРАТИ //Academic research in educational sciences. – 2021. – Т. 2. – №. 3. – С. 679-687.

24.Akhmadovich H. H. Khoja nasriddin afandi as people's hero //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2021. – Т. 11. – №. 2. – С. 1562-1565.

25.Akhmadovich K. K. Symbolism of Birds in Uzbek Literature //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 4. – С. 59-63.